



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti

TARIX FAKULTETI



TARIX va JAMIYAT

JOURNAL 2023



№5

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

Bosh muharrir: Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.

Bosh muharrir o'rinbosari: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

Mas'ul kotib: Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

Dizayner va sahifalovchi: Axmurodov D.Q

RIMLIKLAR NIGOHIDA GERMANLAR YOHUD GERMANLAR HAQIDA BILMAGANLARIMIZ

Saidov Javohir JDPU,

Umumiy tarix kafedrası o‘qituvchisi

Shukurova Maftuna JDPU,

Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi dunyo tarixida o‘ziga xos madaniyati, urf odatlari va xo‘jalik an‘analariga ega german qabilalari haqida rimlik mualliflar asarlaridagi ma‘lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Rim, Yuliy Sezar, Tatsit, Galliya, german qabilalari, Reyn daryosi, gallar, Elba daryosi.

Аннотация: В данной статье анализируются сведения в трудах римских авторов о германских племенах со своей культурой, обычаями и хозяйственными традициями в истории древнего мира.

Ключевые слова: Рим, Юлий Цезарь, Тацит, Галлия, германские племена, река Рейн, галлы, река Эльба.

Abstract: This article analyzes the information in the works of Roman authors about the Germanic tribes with their own culture, customs and economic traditions in the history of the ancient world.

Key words: Rome, Julius Caesar, Tacitus, Gaul, Germanic tribes, Rhine River, Gauls, Elbe River.

Dunyoda odamlar turli hil hayot kechirishadi va buni xalqlarning urf – odatlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu insonlarning jamiyat bo‘lib rivojlanishi jarayonidagi bosqichlarda ham kuzatilgan va bu jarayon insonlar qabila bo‘lib rivojlanayotganida ko‘proq ko‘zga tashlangan. Dunyo bo‘ylab turli qabilalar hayot kechirgan bo‘lib, ularning ichida o‘zlarining mardligi erksevarligi, hech qaysi qabilaga o‘xshamas ko‘rinishlari va urf-odatlari o‘zgacha qabila yashagan. U ham bo‘lsa germanlardir.

Germanlar (qadimiy)-tillarning hind-yevropa oilasiga mansub bo‘lgan hamda shimolda Shimoliy dengiz va janubda Dunaygacha, g‘arbda Reyn va sharqda Elbagacha bo‘lgan hududda, shuningdek Skandinaviya yarimrolida yashagan qabilalar va xalqlarning katta guruhidir. Eramizning boshlarida ular sharqiy (gottlar, burgundlar, vandallar), g‘arbiy (svevlar, frizlar, xerusklar, anglar, sakslar, yutlar) hamda shimoliy (svionlar) germanlarga bo‘lingan. Bir tomondan arxeologiya, taqqoslama tilshunoslik, etnografiya malumotlari, ikkinchi tomondan antik mualliflarning asarlari va ayniqsa Galliyani istilo qilish etish vaqtida ular bilan

bevosita to‘qnashgan Yuliy Sezarning „Galliya urushi haqidagi xotiralar” (er.avv. I asr o‘rtalari) va Rim tarixchisi Tatsitning „Germaniya” degan asari va boshqalar germanlarning ijtimoiy tuzumini o‘rganishda manba bo‘lib xizmat qiladi¹.

Germanlarning tuzilishi va ularning joylashgan o‘rni haqidagi ma’lumot bergan Tatsit shunday yozadi: Germanlar gallardan, retov va panonsiv qabilalaridan Dunay va Reyn daryosi orqali ajralib turadi.

Sarmatlar va daklardan bir-biridan tog‘lar orqali ajraladi. Qolgan qismlari ulkan qirg‘oqlar va quruqliklarni yuvib turadigan okean bilan ajraladi.¹

U ular yashaydigan hududdagi daryolarning harakatlanishiga to‘xtalib shunday deydi: Reyn daryosi Alp tog‘larining o‘tib bo‘lmas baland cho‘qqilaridan boshlanib, g‘arb tomonga biroz burilib, shimoliy okeanga quyiladi. Dunay yegri-bugri holda Abnobi tog‘lar tizmasidan boshlanib, ko‘plab xalqlar yerlaridan oqib o‘tadi va oltita irmoqqa bo‘linib Ponte daryosiga quyiladi. Yettinchi irmoqni botqoqliklar yutib ketadi².

Gay Yuliy Sezar o‘zining „Galliya urushi haqidagi xotiralar” asariga germanlarga qarshi yurishlarida to‘plagan ma’lumotlarni kiritadi va ularga quydagicha tarif beradi: “Germanlar yashaydigan hudud 3ga bo‘linadi: xududning 1-qismida belglar yashaydi. Boshqasida akvetanlar, 3-qismida esa usha qabila tili bilan aytganda keltlar, bizning tilda gallar deb atalgan german qabilalari yashashadi. Lekin bularning hammasi bir-biridan o‘zining tili va qonunlari bilan farqlanadi. Ularni boshqa hududlar bilan turli daryolar ajratadi. Gallarni akvetanlardan Gorumna daryosi ajratib turadi. Belglardan esa Matrona va Sakvana daryolari ajratadi³.

Bularning ichida eng botirlari bu belglar hisoblanadi. Bunga sabab ularning hammadan uzoqda yashashi va savdogarlarning bu yerda kam bo‘lishidir. Chunki savdogarlar odamning ruhini tushiradigan ichimliklarni bu yerga kam kelganliklari uchun ham kam olib kelishadi. Yana bir sababi esa Zarien germanlari bilan qo‘shni yashab, ular bilan tez-tez urishib turishi ularning botirliklariga sababdir.

Gallar ichida ham Gelvitlar o‘zining mardligi bilan ajralib turadi. Chunki ular yo o‘z yerlarida yoki dushman yerlarida jang olib borishadi. Gallar yeri Radana daryosidan boshlanib, Garumna daryosi ularning chegarasi hisoblanadi.

Belglarning yeri okeanga tutash, Sekvanlar va gelvitlar tomonidan Reyn daryosiga tutashadi va shimolga qarab cho‘zilgan Belglar davlati Galliyaning eng uzoq chegarasidan boshlanib, pastki Reyngacha keladi. Okvetaniya Garumna

¹ X.Ю.Бекмухаммедов. Ўрта asrlar tarixidan izoqli lug‘at. T.: Ўқитувчи, 1979, 54-б

¹ Karniley Tatsit. Germanlarning joylashgan o‘rni va Germaniyaliklarning kelib chiqishi haqida . 1-bet.
<http://www.ancienrome.ru/>

² O‘sha joyda

³ Yuliy Sezar Galliya urushi haqidaги хотиралар 58 God do H. Э <http://www.ancienrome.ru/>

daryosidan boshlanib, Preniy tog'larigacha va okean orqali Ispaniya qirg'oqlarigacha cho'zilgan. Okvetaniya shimoli-g'arbda joylashgandir.¹

Tatsit germanlarning tarixini o'rganish davomida germanlarning kelib chiqishiga va xalq bo'lib shakllanishida boshqa xalqlarning o'rni unchalik katta bo'lmaganligini va ularning paydo bo'lish jarayoni aynan shu yerda bo'lganligini ta'kidlaydi: germanlarning kelib chiqishiga to'xtaladigan bo'lsak ularning kelib chiqishi aynan shu yerdadir. U germanlarga kelganda ularni shu yerning haqiqiy aholisi deb hisoblaydi. Ular bu yerga juda oz miqdorda kelib qolgan xalqlar va yana oz miqdorda kelgan ko'chmanchilar bilan aralashgan.

Ko'chmanchilar bu yerga faqat quruqlik orqali emas, balki kemalarda okean orqali ham kelib qolishgan. Osiyo va Afrika orqali Germaniyaga kelishni xoxlovchilar bu yerlarni daxshatli, quvonchsiz va yashash uchun yaroqsiz deb o'ylashgan.¹¹²

Germanlar hech qaysi va hech qanday qabilalar bilan aralashmagan degan fikrni takidlagan Tatsit buni shunday izohlaydi: germanlar juda ko'pchilikni tashkil etishiga qaramay, ularning o'ziga xos belgilari boshqa xalqlarda uchramaydigan xislatlari barcha germanlarda bir xil. Ya'ni moviy ko'zlar, malla sochlar, baland va baquvvat gavdalar faqat ularga xos. Shu bilan birga ular tinmay mexnat qilishga toqatlari yo'q. Ular issiq va jaziramani ko'tara olishmaydi. Ular yashaydigan sharoit va muhit ularni ochlik va sovuqqa chidamli bo'lishlarini ta'minlaydi¹.

Ayrimlar Odessey ham o'zining mashhur va uzoq sayohati davomida Reyn daryosi bo'ylab okean orqali Germaniyaga kelgan deyishadi. Bunga sabab qilib shuni aytish kerakki bu yerda grek xarflarida yozilgan qabrlar mavjud. Qabrlarga La Yerta deb ham yozilgan. Bu Odessiyning otasining nomidir².

Tatsit germanlarning ichki hayotiga to'xtalib, ularning yashaydigan joy tabiati, chorvachiligi va ichki savdosiga ham ta'rif beradi. Mamlakatning tuzilishi ba'zi joylarda farq qilsada, lekin umuman juda ham yomon va o'zining qo'rqinchli o'rmonlari va botqoqlari bilan bir xil. Galliyaga qaragan tomoni judayam namgar. Norik va Pannonga qaragan tomoni shamolga ochiq. Umuman olganda yeri hosildor, lekin mevali daraxtlarga yaramaydi. Mayda tuyoqli hayvonlar judayam ko'p. Lekin ularning bo'yi past. Ular ho'kizlarining boshiga bezak taqishmaydi. Lekin germanlar o'zlarining podalari ko'pligi bilan faxrlanishadi va g'ururlanishadi. Xudolari ularni oltin va kumushdan bebaxra qilishgan. Bu xudolarning ularga qilgan

¹ Yuliy Sezar. Gallia yuruhi haqidaги хотиралар. 58 God do H. Э. <http://www.ancienrome.ru/>

² Tatsit. Germanlarning joylashgan o'rni va Germaniyaliklarning kelib chiqishi haqida. 2-bet <http://www.ancienrome.ru/>

¹ Karniley Tatsit. Germanlarning joylashgan o'rni va Germaniyaliklarning kelib chiqishi haqida. <http://www.ancienrome.ru/>

² Yuliy Sezar Gallia yuruhi haqidaги хотиралар. 1-tom 57 god do H. Э. <http://www.ancienrome.ru/>

shavqatimi yoxud g‘azabimi buni bilish qiyin. Ularning yelchilari uylarida boshqa xalqlar sovg‘a qilgan kumush idishlarni ko‘rish mumkin. Ular bu idishlarni xuddi loy idishlar kabi qadrlashadi³.

Ichki viloyatlarda yashovchi xalq oddiy xayot kechirishadi. Germanlar savdoda ilgari ma‘lum bo‘lgan eski tangalarni ishlatishadi. Eski tangalarning chekkalari tishsimon bo‘lib, o‘rtasida aravani rasmi bor. Boshqa xalqlar bilan savdo qilganda ular oltinga nisbatan kumushni yaxshiroq qabul qilishadi. Bu degani ular oltinni yomon ko‘rishadi degani emas, aksincha ular arzon va oddiy narsalarni olishda kumushdan ko‘proq foydalanishadi⁴.

Germanlarning dinlari haqida so‘z yuritganda shuni aytish joizki ular o‘zlarining qadim o‘tmishlarini she‘riy dostonlar va afsonalar orqali bilishgan. Ular shunga asoslanib yer xudosi To‘istonni ulug‘lashgan. Uning o‘g‘li Mann bu xalqning otasi va undan germanlar tarqalgan deyilgan afsonalarda

Germaniya so‘ziga to‘xtalganda bu so‘z yangi va yaqinda urfga kirganing sababi Reyn orqali birinchi bulib suzib kelganlar bu yerlardan gallarni quvishgan va o‘zlarini germanlar deyishgan. Shunday qilib bu qabilaning nomi asta-sekin tarqala boshlagan va butun xalqni o‘z ichiga olgan.

Bosib olingan xalqlar qo‘rqanlaridan o‘zlarini g‘alaba qozonganlar nomlari bilan ya‘ni germanlar deb atashgan. Keyinchalik bu nom ancha o‘rnashgandan keyin hamma o‘zini germanlar deb atashni boshlagan.¹

Xulosa qilib shuni aytish joizki germanlarning urf–odatlari, mashg‘ulotlari, faqat o‘zlariga xos bo‘lgan ko‘rinishlari va eng muhimi ularning erksevarliklari haligacha mavjud. Ularning mardligi va jasurligi haqida ko‘plab afsona va rivoyatlar to‘qilgan va hozirgi kungacha yetib kelgan. Tarixiy manbalar esa bizga ko‘plab ishonchli va qiziqarli ma‘lumotlarni beradi. Misol tariqasida shuni olish mumkinki Gerkules bu yurtga tashrif buyurgan va shu yerlik aholi bilan kuch sinashgan. Kuch sinashish davomida Gerkules ularni tengi yo‘q bahodirlar ekanligini ko‘rgan.² Shunday ekan, hozirgacha o‘zligini va ko‘zlagan maqsadlari yo‘lida hech narsadan qaytmaydigan german qabilalari tarixiga bo‘lgan ulkan qiziqish hamon davom etaveradi.

³ Karniley Tatsit. Germanlarning joylashgan o‘rni va Germaniyaliklarning kelib chiqishi haqida. <http://www.ancienrome.ru/>

⁴ O‘sha joyda

¹ Karniley Tatsit. Germanlarning joylashgan o‘rni va Germaniyaliklarning kelib chiqishi haqida. <http://www.ancienrome.ru/>

² O‘sha joyda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karniley Tatsit. Germanlarning joylashgan o'рни va Germaniyaliklarning kelib chiqishi haqida. <http://www.ancienrome.ru/>
2. Yuliy Sezar. Gallia urushi haqidaги хотиралар.58 God do H. Э. <http://www.ancienrome.ru/>
3. X.Yu.Бекмухаммедов. Ўрта асрлар тарихидан изоҳли луғат. Т.: Ўқитувчи, 1979, 54-б
4. Saidov, J., & Shukurova, M. (2021). Qadimdan to hozirgi davrgacha saylov jarayonining sayqallanishi. *Журнал истории и общества*, (1).